

MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN QIZLAR SPORTIGA E'TIBOR

Bo`riboyev A.Y.,

A.Qodiriy nomidagi JDPU katta o`qituvchisi

Qudratov R.,

Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi.

Jismoniy tarbiya va sport ayolga latofat bag'ishlabgina qolmay, uning jismonan salomat bo'lishiga ulkan zamin hozirlaydi. Mamlakatimizda qizlarni sportga jalg etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari qizlarni jismoniy tarbiya va sportga yanada kengroq jalg etish zarurligini, buning uchun mahalla va xotin-qizlar qo'mitalarining faolligini oshirish, oilalar bilan doimiy ishslashni yanada kuchaytirish lozimligini alohida ta'kidlaganlari yurtimizda xotinqizlarga e'tibor bilan birgalikda, g'amxo'rliklar ko'rsatilayotganining yana bir yorqin ifodasidir. Jismonan sog'lom, ma'nан yetuk, zamonaviy fikrlaydigan, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan, uning ravnaqiga munosib hissa qo'shishga intiladigan yosh avlodni voyaga etkazish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Shu bois Istiqlolning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimi, uning uzziyi qismi bo'lgan sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada olib borilayotgan keng ko'lamli sa'yi harakatlar bugun mamlakatimiz yoshlarining, xususan, qizlarimizning sport sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishishlarida, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim omil bo'lmoqda. Darhaqiqat, ayollar va bolalarni ommaviy sportga keng jalg etish, pirovardida ular salomatligini muhofaza qilish hayotiy ezgu maqsadga aylandi.

Zero, sog'lom avlodni tarbiyalash — buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir. Mustaqillikning ilk yillarda ilgari surilgan ushbu g'oya mamlakatimizning bosh maqsadini, davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishini belgilab berdi. O'tgan yillar davomida bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda onalar hamda bolalar salomatligini saqlash, sog'lom va barkamol, yuksak intellektual salohiyatga ega avlodni kamol toptirish uchun barcha shart-sharoit yaratildi.

Davlatimiz rahbarining 2014 yil 1-avgustdagи 2014 - 2018 yillarda O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori mohiyat e'tibori bilan farzandlarimizning jismoniy hamda ma'naviy kamolotini yuksaltirish, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining tashkil etilishi, uch bosqichli sport tizimi — “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada musobaqalarining yo‘lga qo‘yilishi bolalar hamda o‘smirlar o‘rtasida sportni ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, professional sportchilarни tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etayotir. Qishloq joylarda ayol murabbiylar faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish maqsadida Xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan 2006-yilda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti)da “Xotin-qizlar sportini rivojlantirish” yo‘nalishi tashkil etilib, malakali mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlarida ham bugungi kunda mazkur yo‘nalishda minglab qizlarimiz tahsil olmoqda. Sportning ayollarga xos turlarini rivojlantirish va shu orqali opa-singillarimizda o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan mas’ullikni kuchaytirish, sog‘lom avlod tug‘ilishini ta’minalash maqsadida bir qator choralar ko‘rilmoxda.

Respublika Prezidendi va xukumatining tashabuslari xamda bevosita g’amxo‘rliklari tufayli «Ayollar yili» (1999), «Sog‘lom avlod yili» (2000), «Onalar va bolalar yili», (2001), «Qariyalarni qadrlash –yili» (2002), «Obod mahalla yili» (2003), , «Sihat salomatlik yili» (2005), «Yoshlar yili» (2008), «Sog`lom bola yili» (2014), «Sog`lo mona va bola yili» (2016), «Yoshlarni qo`llab quvvatlash va aholi salomatligi yili» (2021), ushbu yil «Yoshlarni qo`llab quvvatlash va biznes yili» va bunga bag’ishlab o’tkazilayotgan tadbirlarda o‘z samarasini bermoqda. Ularning mazmunida «sog‘lom ona sog‘lom bola», «Sog‘ tanda-sog‘lom aql», «Barkamol avlod tarbiyasi» kabi muxim shiorlar ostida turli tuman ma’daniy-ma’rifiy va sport tadbirlari tashkil etilmoqda. Ularning negizida asosan xotin qizlarning salomatligi, ma’daniy turmush farovonligini oshirish, o‘quvchi va talaba qizlarning kasb hunar egallashlari, sog‘lom turmush tarzini egallashlarini ahamiyat kasb etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari, teleradio va san‘at saroylari, ulkan sport inshoatlarilarida xotin-qizlar faolyati, ularning zamonaviy madaniyati doimo o‘z ifodasini topmoqda. Ta’kidlash lozimki, umum-ta’lim maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, turli xil o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarini taxsil olayotgan qariyb 6 milion yoshlarni yarmidan ko‘pini xotin qizlar tashkil etadi. Ularning 75-80 % esa maxalliy millat vakillari. Bu juda quvonarli dalil va voqelikdir. Lekin ular orasida jismonan zaif, kasalmand, tug‘ma nogironlar xam oz emas. jismoniy tarbiya darslarida muntazam shug‘ullanuvchilarning 50-60% dastur talablarining o‘z vaqtida o‘zlashtira olmaydi yoki keyinchalik xam to’la bajara olishmaydi. Barcha turdagи ta’lim muassasalarida tashkil etilgan sport to’garaklarida muntazam shug‘ullanuvchilar umumiylar qizlar soniga nisbatab 5-10% dan oshmaydi.»Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Unversiada» va boshqa turli

sport musobaqalarida faol ishtirok etuvchi xotin-qizlar soni 25-30% atrofidadir. Ayniqsa oliy ta`lim muassasalarining «Talabalalar ligasi» sport musobalarida bevosita qatnashayotgan hotin qizlarimiz soni xam sifati qanoatli darajada emas. Bularning obektiv va subyektiv sabablari juda ko`p. Eng achinarli tomoni shundaki, o`zbek qizlari ayniqsa-qishloq sharoitlarida jismoniy tarbiya darslari, to`garak mashg`ulotlari xamda sport musobaqalarida zo`rama-zo`raki shug`ullanadilar, ya`ni «qoniqarli» baxo olish uchungina qatnashadilar. Bu o`z navbatida jismoniy tarbiya va sportning salomatlik, jismonan rivojlanish, chiniqish kabi tarbiyaviy jarayonlarni yaxshi bilmaslikning oqibatidir. Bularning sabablaridan biri ota-onalarning tazyiqi va voyaga yetgan qizlarning sport kiyimlarida og`il yigitlar oldida shug`ullanishga uyalishidir. Lekin zamonaviy madaniy jixatdan rivojlanib borayotgan qizlar bunday xolatlarga unchalik e'tibor berishmasligi amalda sinalmoqda. Ular sportda yaxshi natijalarga erishmoqda. Bu yo`lda kurash, suzish, gimnastika, yengil atletika ayniqsa sharqona yakka kurashlar bo'yicha tashkil etilgan to`garaklar, markaziy seksiyalar sport maktablarida shug`ullanayotgan o`zbek qizlarini ko`z oldiga keltirishning o`zi kifoyadir.

Bugungi kunda Jizzax viloyati Oliy o`quv yurtlarining sobiq bitiruvchilari Yulduz Xamraqulova (shaxmat), Zulfiya nomidagi davlat mukofati sovrindorlari Iroda Abduraxmonova, Iroda Matmurodova (dju-do kurashi), Sabina Umarova (yengil atletika) va Nigina O`ktamova (boks sport turidan O`zbekistonda birinchi jahon chempioni) va boshqa istidodli talaba sportchi qizlar faqat yurtimiz yoki markaziy Osiyodagina emas, xatto Osiyo va Jaxonga tanilgandir.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumatining «Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasini tashkil etish» to`g`risidagi farmoni (2002 yil 24 oktyabr) va qarorini (31 oktyabr 2002 yil) amalga oshirishda qishloq va shaharlardagi ixtidorli o`zbek qizlarni sportga jalb qilish lozim. Ularni tarbiyalab yetishtirish hamda jaxon sport musobaqlari, ayniqsa olimpiya o`yinlarida ulvrning ishtirokini taminlashdek murakkab masuliyatni tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirish zarurdir.

O`zbekistonning mustaqilligi yillarda Respublika prezidenti va xukumati tomonidan juda ko`plab tub isloxatlar o`tkazildi. Ularning mazmuni, maqsadi va vazifalari tarkibida xotin-qizlar jamiyat taraqqiyotidagi o`rni ayniqsa onalar va bolalar sog`ligini yaxshilsh tadbirlari katta o`rin egallamoqda.

Yosh avlodni sog`lom qilib tarbiyalab voyaga etkazishdek muxim ma`suliyat eng avvalo onalar zimmasidadir. Bu o`z navbatida onalar va bolalarni salomatligini muxofaza qilish, ijtimoiy-moddiy yordam ko`rsatish, sog`lom turmush tarzini taminlashdek keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu asosda bog`cha tomosha qilish zamonaviy estrada qo'shiqlari va

raqslariga xamohang bo'lishda Evropa va Amerika xamda Yapon xotin qizlaridan qolishmayotir. Bu mustaqillik inom etgan nafis tuxfalarning namunasidir. Chunki jaxonda ijtimoiy-ma'daniyat yoshlar sanati yani bosqichlarga ko'tarilib, ular barcha xududlarga, shunignde o'zbek diyoriga xam quyosh nurlaridek tez va keng tarqalib bormoqda.

Osiyo, Evropa, Amerika va jaxon miqyosida yoshlar orasida turli sport turlari bo'yicha turnerlar, chempionatlarning o'tkazilishi yurtimiz yoshlarini xam o'ziga jalg qilmoqda. Ular orasida o'zbek qizlari xam faol ishtirok etib, O'zbekiston shuxratini oshirishda katta hissa qo'shmoqda. O'zbek kurashi bo'yicha jaxon birinchiliklarining o'tkazilishi o'zbek qizlarini bu soxadagi imkoniyatlari va sharoitlarini ishga solishga davat etmoqda Bolalar sportini rivojlantirish dasturida maxalliy millat xotin-qizlarini sportga jalg etish, ular orasidan iqtidorli yoshlarni tanlab olish tarbiyalashga alovida e'tibor berilmoqda. Chunki buyuk kelajagimizning ravnaqida sport muxim o'rinni egallaydi. Bu yo'lida o'zbek qizlaridan etuk va maxoratlil spotchilar tayyorlash ularni jaxon sport musobaqalarida aybiqsa olimpiya musobaqalarida safarbar etish eng muxim dolzarb muommolardan biridir.

Bugungi kunda poytaxtimizdan tashqari Buxoro, Navoiy, Xorazm, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ham gimnastika markazlari samarali faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonlik gimnastika mutaxassislari, murabbiylari va hakamlarining malakasi va saviyasini oshirish maqsadida poytaxtimizda Xalqaro olimpiya qo'mitasi va Xalqaro gimnastika federatsiyasi bilan hamkorlikda seminar-treninglar o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Badiiy gimnastika bilan shug'ullanayotgan sportchilarimizning xalqaro miqyosdagi ko'rsatkichlari o'sib borayotgani muxlisu mutaxassislarni xushnud etmoqda. Badiiy gimnastika bilan shug'ullanayotgan qizlar bir yilda 13 mingga ortib, 91 mingdan ziyodni tashkil etayotgani uning nufuzi tobora oshayotganidan dalolat beradi.

Ko'rinish turibdiki, sportchi xotin-qizlar erishayotgan yutuqlar esa har birimizga faxr-iftixor bag'ishlaydi. Milliy olimpiya qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Yaponiyaning Tokio shahrida bo'lib o'tgan XXXII olimpiya o'yinlarida 30 nafar xotin-qiz sportchimiz munosib ishtirok etgani buning yaqqol isbotidir. Chunonchi, Olimpiya o'yinlarida 7-marta ishtirok etayotgan O'zbekiston delegatsiyasi uchun Tokio Olimpiadasi bir qator qiziqarli faktlar bilan ahamiyatli. Masalan, ilk bor zamonaviy beshkurash sportida Olimpiya o'yinlariga litsenziya qo'lga kiritildi, shuningdek, ayol sportchilar soni 30 nafarni tashkil etmoqda. Bu esa tarixdagi eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari;

- 2020 yil Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkaziladigan XXXII yozgi Olimpiya o'yinlariga O'zbekistonlik atletlar sportning 17 turida jami 71 ta yo'llanmani qo'lga kirtdilar. Bu sport turlari soni bo'yicha rekord ko'rsatkichdir;

- Tokio-2020 Olimpiya o‘yinlarida birinchi marotaba O‘zbekiston dzyudo terma jamoasi 3 nafar ayol dzyudochi bilan, shuningdek, dunyodaning eng kuchli 12 jamoasi qatorida aralash jamoaviy yo‘nalishlarda ham ishtirok etadi;
- Birinchi bor zamonaviy beshkurash sport turida Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasi qo‘lga kiritildi;
 - Boks bo‘yicha ilk marotaba o‘zbekistonlik 3 nafar qiz sportchi bellashuvlarda qatnashadi. Umumiy yo‘llanmalar esa 11 tani tashkil qilmoqda. Sportning ushbu turida butun dunyoda faqatgina 3 ta jamoa shuncha bokschi bilan ishtirok etadi;
 - Oksana Chusovitinaning nomi dunyo sport gimnastikasi tarixiga sakkizinchı bor Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etgan birinchi sport gimnastika ustasi sifatida bitiladi.
- XXXII yozgi Olimpiya o‘yinlarida qilichbozlik sportida birinchi marotaba 3 ta yo‘llanma qo‘lga kiritildi;
 - Og‘ir atletika bahslarida ilk bor 2 nafar qiz sportchi Olimpiada yo‘llanmasiga sazovor bo‘ldi;
 - Tayekvondo bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi o‘z tarixida birinchi marta Olimpiya o‘yinlarida to‘liq tarkibda (2+2) ishtirok etadi;
 - Tokio Olimpiadasi o‘yinlarida Olga Zabelinskaya velosport bo‘yicha ayollar o‘rtasida ishtirok etgan dastlabki o‘zbekistonlik sportchi bo‘lib tarixga kiradi;
 - Svetlana Radzivil 4 ta Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan O‘zbekistonlik dastlabki yengil atletikachi nomiga sazovor bo‘ladi;
 - Delegatsiyaning eng yoshi katta sportchisi — afsonaviy Oksana Chusovitina (1975-yil 19-iyun) 46 yoshida sport gimnastikasi bo‘yicha Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etmoqda;
 - Eng yoshi kichik sportchilar — Zaynab Dayibekova hamda Sevara Safoyeva. Har ikkisi 2002 yilning 19 noyabr sanasida tavallud topgan. Zaynab Dayibekova qilichbozlikning sablya yo‘nalishida ishtirok etsa, Sevara Safoyeva badiiy gimnastikaning guruh mashqi dasturida O‘zbekiston sharafini himoya qiladi.

Olimpiada bahslarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan yana ko‘plab vakillarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.